

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/27.09.2024.Ped.82.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

EGAMBERDIYEVA NIGORA AZIZOVNA

**TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA AUTIZM SINDROMLI BOLALAR
NUTQI USTIDA ISHLASHNING SAMARALI MEXANIZMLARI**

13.00.03 –Maxsus pedagogika

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Egamberdiyeva Nigora Azizovna

Та’лим klasteri sharoitida autizm sindromli bolalar nutqi ustida
ishlashning samarali mexanizmlari.....3

Эгамбердиева Нигора Азизовна

Эффективные механизмы работы над речью детей с синдромом аутизма в
условиях образовательного кластера.....21

Egamberdiyeva Nigora Azizovna

Effective mechanisms for developing the speech of children with autism spectrum
disorder within an educational cluster.....42

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....46

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD. 03/27.09.2024.Ped.82.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

EGAMBERDIYEVA NIGORA AZIZOVNA

**TA'LIM KLASTERI SHAROITIDA AUTIZM SINDROMLI BOLALAR
NUTQI USTIDA ISHLASHNING SAMARALI MEXANIZMLARI**

13.00.03 –Maxsus pedagogika

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasida **B2023.4.PHD/Ped6711**- raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Ilmiy rahbar:

Qodirova Feruzaxon Usmanovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xakimova Muxabbat Fayziyevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Arslanova Madina Mansurovna
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD. 03/27.09.2024.Ped.82.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____soat ___dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712-45-41; e-mail: chdpi-kengash@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 111720, Chirchiq shahri, Amir Temur ko‘chasi, 104-uy. Tel: (99870) 712-27-55; faks: (99870) 712- 45-41)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ da tarqatildi.

(2025-yil “___” _____dagi _____ - raqamli reyestr bayonnomasi).

F.U.Qodirova

Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, pedagogika
fanlari doktori, professor

I.D.Qodirov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash ilmiy kotibi, pedagogika
fanlari bo‘yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent

D.O.Ximmataliyev

Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, pedagogika fanlari
doktori, professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda imkoniyati cheklangan bolalar ta'limini hamda tarbiyasini shaxsga yo'naltirilgan tamoyillar asosida moderinizatsiyalashga e'tibor qaratilmoqda. Bu esa imkoniyati cheklangan bolalar bilan olib boriluvchi korreksion-pedagogik jarayonni optimallashtirishni, adaptivlashtirishni taqozo etadi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Dakar Deklaratsiyasi asosida qabul qilingan "Ta'lim hamma uchun" reja-dasturida belgilanishicha, ta'lim nafaqat sog'lom bolalar uchun, balki alohida ta'lim ehtiyojiga ega bolalar uchun ham qulay bo'lmog'i lozim. Ushbu vazifaning amalga oshirilishida oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamkorligini kuchaytirish, profilaktika va reabilitatsiyaga muhtoj bolalar va ularning oilalariga tibbiy psixologik, pedagogik, iqtisodiy yordam ko'rsatish xizmatini korreksion-pedagogik yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, ta'lim subyektlari faoliyatining maqsadli integratsiyasini va uni didaktik ta'minlashni taqozo etadi.

Dunyoda imkoniyati cheklangan bolalar qatorida autizm sindromli bolalar bilan ishlashning sifatini oshirish, individual yo'naltirilgan variativ ta'lim dasturlarini joriy etish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Variativ dasturlarda autizm sindromli bolalarni kompleks rivojlantirishning insonparvarlik, korreksion-kompensatsion yo'nalganlik, erta aralashuv tamoyillariga ustuvorlik berish dolzarb hisoblanadi. Bu esa bolalar nutqi ustida ishlashning klaster mexanizmlarini taqozo etadi. Autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishda korreksion-rivojlantiruvchi ishlarning pedagogik, psixologik, metodik jihatlarini takomillashtirishda oila, tibbiyot birlashmasi, maktabgacha ta'lim tashkiloti, mahalla, xususiy sektor kabi subyektlarning integratsion faoliyati muhim omil sanaladi. Nutq ustida ishlash bo'yicha vizual, audial, kinestetik ta'sir metodlarining yangi, innovatsion modellarini yaratish, adaptivlashtirish dolzarblik kasb etadi.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimini moderinizatsiyalash, sog'lom bolalar qatorida imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va ijtimoiylashtirishning huquqiy me'yorlari takomillashtirilgan. "O'qitish metodikasini takomillashtirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish" vazifalari belgilab berilgan¹. Ushbu vazifa doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autizm sindromli bolalar bilan ishlash, ularning aqliy, ruhiy, jismoniy rivojlanish muammolarini bartaraf etish metodlarini tadqiq qilish dolzarblik kasb etmoqda. Mazkur bolalarning og'zaki nutqini muloqot vositasi darajasida shakllantirishda oiladagi pedagogik-psixologik muhit, korreksion jarayonning didaktik ta'minoti hamda pedagoglarning innovatsion faoliyati muhim sanaladi. Bunda klaster sharoitida subyektlar faoliyatini manfaatli hamkorlikda tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Chunki autizm sindromli bolalar muloqot ko'nikmalarini intensiv shakllantirish kompleks vazifalar doirasida amalga oshiriladi. Bu esa maktabgacha ta'lim tashkilotlarida korreksion-pedagogik

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019 yildagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni

ishlarni differensial, individual, shaxsga yo'naltirilgan va sinergetik yondashuvlarni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 1 dekabrda PF-5270-son "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019 yil 29 aprelda PF-5712-son "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi to'g'risida", 2022 yil 28 yanvarda PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonlari, 2020 yil 13 oktyabrda PQ-4860-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 12 oktyabrda 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashtirilgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish, tarbiyalash va ijtimoiylashtirishning pedagogik, psixologik va metodik aspektlari Sh.M.Amirsaidova, M.M.Arslonova, M.Y.Ayupova, Z.N.Mamarajabova, L.R.Muminova, D.A.Nurkeldiyeva, P.M.Pulatova, V.S.Raxmanova, Sh.E.Tuxtiyorova, M.F.Xakimova, M.P.Xamidova, F.U.Qodirova, R.Sh.Shomahmudova, D.B.Yakubjanovalar va boshqalarning tadqiqotlarida tahlil etilgan. Pedagogik ta'lim innovatsion klasterining ilmiy-nazariy asoslari, uning uzluksizligi, uzviylik va izchillik bilan bog'liq yangi innovatsion tuzilma ekanligi pedagog olimlar Sh.I.Botirova, B.X.Eshchanov, Sh.Q.Mardonov, G'.I.Muxamedov, A.K.Raximov, S.A.Toshtemirova, J.E.Usarov, U.N.Xodjamqulovlarning tadqiqotlarida yoritilgan. Respublikamiz olimlaridan N.R.Jumaniyazova, L.R.Mo'minova, L.V.Nazirova, D.A.Nurkeldiyeva, L.Sh.Nurmuhamedova va boshqa olimlar tomonidan autizm sindromli bolalarning ijtimoiylashuvi, psixologik rivojlanishi, ona-bola munosabatlarining o'ziga xos jihatlari yuzasidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi pedagog-psixolog olimlaridan E.R.Bayenskaya, V.M.Bashina, K.Gilbert, Y.S.Grebelskaya, D.N.Isayev, K.S.Lebedinskaya, M.M.Libling, I.I.Mamaychuk, O.S.Nikolskaya, T.N.Piters, P.E.Suxareva, L.S.Vigotskiy, A.I.Zaxarov va boshqalarning ilmiy izlanishlarida autizm sindromli bolalarning o'ziga xos xususiyatlari, turlari, boshqa ruhiy kasalliklardan farqlari, bu toifa bolalarni tibbiy-psixologik va pedagogik tashxislash usullari hamda bolalarda muloqot jarayonini shakllantirish masalalari ilmiy tadqiq etilgan.

Xorij olimlaridan G.Asperger, E.Bleyler, B.Bettelxeym, Baron Cohen, M.M.Bristol, L.Eyzenbergom, R.R.Fevyell, C.Gillberg, K.Gilbert, Dj.M.Itar, L.Kanner, E.Schopler va boshqalar autizm sindromli bolalar rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya ishi Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy tadqiqot ilmiy ishlar rejasining “Pedagogik ta’lim innovasion klasterining ilmiy nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish mexanizmlarini ishlab chiqish” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ta’lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning samarali mexanizmlarini aniqlash va ularni joriy etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ta’lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash;

autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning klaster modelini takomillashtirish;

autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion-didaktik mexanizmlarini takomillashtirish;

ta’lim klasteri subyektlari faoliyatini integratsiyalashning metodik ta’minotini takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ta’lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlash jarayoni belgilanib, Farg‘ona, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahridagi ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlarining jami 80 nafar 5-7 yoshli tarbiyalanuvchilari jalb etildi.

Tadqiqotning predmetini ta’lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida manbalar va tajribalarni o‘rganish, anketa, intervyu, suhbat, pedagogik eksperiment, natijalarni matematik va statistik tahlil etish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlari bolalarda murojaatga reaksiyani shakllantirishga qaratilgan korreksion resursni ota-onalarning pedagogik pozitsiyasi ustuvorligida mikro muhit talablariga ko‘ra adaptivlashtirish asosida aniqlashtirilgan;

autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning klaster modeli vizual kontaktni nutqiy muloqotgacha rivojlantiruvchi ta’lim subyektlarining harakat xaritasini aniqlash, “FloorTime”, “PECS kartochkalari” texnologiyalarining integrativ elementlarini “ijtimoiy dislokatsiya” metodika elementlariga bosqichma-bosqich singdirish asosida takomillashtirilgan;

autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion-didaktik mexanizmlari axborot almashishga undovchi alternativ muloqot mashqlarini ishlab

chiqish hamda pedagogik va terapevtik ta'sir algoritmlar simulyasiyasini kuchaytirish asosida takomillashtirilgan;

ta'lim klasteri subyektlari faoliyatini integratsiyalashning metodik ta'minoti ehtiyojni nutqiy ifodalash mezonlarining bolalardagi beqaror xatti-harakatlarni bartaraf etishga qaratilgan relaksatsion ta'sir amaliyotida konstruktivlik imkoniyatlariga ko'ra personal imkoniyatlarini korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat trayektoriyasiga hamohang maqbullashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ta'lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashga va metodik takomillashtirishga oid "Integrativ korreksion ta'sir" nomli dastur va ishlanmalar ishlab chiqildi va joriy etildi;

subyektlar faoliyati integratsiyasiga asoslangan autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning pedagogik-psixologik va metodik aspektlarini takomillashtirishga mo'ljallangan "Inklyuziv ta'limda sinergetika" darsligi chop etildi;

maktabgacha ta'lim tashkilotlarida autizm sindromli bolalar bilan olib boriluvchi korreksion mashg'ulotlarni FloorTime bo'yicha modellashtirish va PECS texnologiyasi asosida amalga oshirishga qaratilgan mashg'ulot seriyalari ishlab chiqildi va joriy etildi;

oilalarda autizm sindromli bolalar bilan olib boriluvchi mashg'ulotlarni didaktik ta'minlashga mo'ljallangan "Yomg'ir bolalari" (tashxislash va korreksiyalash) nomli uslubiy qo'llanma chop etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materialari to'plami, OAK ro'yxatidagi hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, muammoning ijtimoiy-pedagogik tavisfini oydinlashtiruvchi o'quv qo'llanma nashr etilganligi, to'plangan materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan xajmda ekanligi, tadqiqot ishida ilgari surilgan nazariy, metodik g'oyalarning soha amaliyotining mazmuni va funksiyalarini ifodalashga xizmat qilishi bilan belgilanadi hamda tajriba-sinov ishlarining haqqoniyligini, olingan natijalarning asoslilikini tasdiqlovchi ma'lumotlarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ta'lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari klaster subyektlarining sinergetik faoliyatiga bog'liq holda ochib berilganligi, nutqining impressiv va ekspressiv tomonlarini rivojlantirishga qaratilgan nutqiy impuls modellari simulyativ ta'sir hamda ijtimoiy dislokatsiya ustivorligida ishlab chiqilganligi va bolalardagi nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishning reflektiv, ijtimoiy, kommunikativ reaksiya bosqichlari ajratilganligi, bu bosqichlarda korreksion-rivojlantiruvchi muhitni ta'minlashning metodik tizimi personal adaptivlashtirilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati autizm sindromli bolalar bilan olib boriladigan korreksion-pedagogik ish samaradorligini oshirishning klaster mexanizmlari aniqlanganligi hamda tadqiqot natijasida taklif etilgan tavsiyalar va metodik ko'rsatmalardan maxsus pedagogika yo'nalishida faoliyat olib borayotgan

amaliyotchi pedagoglarning malaka oshirish kurslarida, shu yo‘nalishda tadqiqot olib borayotgan tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlari bo‘yicha tajriba-sinov ishlarini modellashtirishda, inklyuziv ta‘limga autizm sindromli bolalarni tayyorlash jarayonini didaktik takomillashtirishda tayanch metodik manbaa sifatida hamda mazkur toifa bolalarning ota-onalari uchun esa ijtimoiy motivatsion manbaa sifatida foydalanilishi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta‘lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning samarali mexanizmlarini aniqlash bo‘yicha ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

ta‘lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari muloqotga ehtiyojni kuchaytiruvchi refleksiv, ijtimoiy, kommunikativ reaksiya harakatlarini korreksion ta‘sir maqsadlariga integratsiyalash hamda mikromuhitda ota-onalar pozitsiyasini metodik optimallashtirishga oid takliflari “Inklyuziv ta‘limda sinergetika” darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 4 martdagi 55-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 55350-sonli guvohnoma). Natijada, autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning didaktik ta‘minoti takomillashtirilgan;

autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning klaster modeli vizual kontakti nutqiy muloqotgacha rivojlantiruvchi ta‘lim subyektlarining harakat xaritasiga ijtimoiy dislokatsiya, “FloorTime”, “PECS kartochkalari” texnologiyalari elementlarini adaptiv imitatsiyalarda singdirishga oid tavsiyalari “Mayda qo‘l motorikasini rivojlantirish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22 dekabrda 537-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 537298-sonli guvohnoma). Natijada, autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashda korreksion-pedagogik jarayonni modellashtirish bo‘yicha tavsiyalarni targ‘ib etishga erishilgan;

autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion-didaktik mexanizmlari axborot almashishga undovchi alternativ muloqot mashqlarini rivojlantiruvchi muhitning adaptivlik, integratsion, kompensatsion imkoniyatlariga ko‘ra dinamik bosqichlarida terapevtik yo‘nalganlikda transformatsiyalashga doir takliflari “Mo‘ljal olish va harakatlanish” o‘quv qo‘llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 29-sentabrda 438-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 438364-sonli guvohnoma). Natijada autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishda mikro va makro muhitni yaratishning metodik ta‘minoti takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta, jumladan, respublika jurnallarida 6 ta, xorijiy jurnalda 2 ta maqolalar chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uch bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 122 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti aniqlangan, shuningdek, tadqiqot ishi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida autizm sindromli bolalar rivojlanishining pedagogik-psixologik xususiyatlari, bolalar nutqini rivojlantirish tamoyillari va samarali omillari hamda bolalar rivojlanishida muloqotning o'rni va uni egallashdagi to'siqlar yoritilgan. Autizm sindromli bolalarda o'z qobig'iga o'ralganlik, xulq-atvorida kamchiliklar namoyon bo'lib, nutq va muloqot ko'nikmalari yoshga nisbatan yetarli darajada rivojlanmaydi. Natijada ular maktab ta'limiga ruhiy, nutqiy, intellektual jihatdan tayyor bo'lmaydilar. Statistik tahlillarga ko'ra, bugungi kunda mazkur sindrom o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan 4 baravar ko'proq uchramoqda.

“Autizm” termini shveysariyalik psixiatr Eygen Bleyler 1912-yilda fanga kiritgan va mazkur sindromga quyidagicha ta'rif bergan: “Autizm - kishining emotsional ehtiyojlari tomonidan boshqariladigan va real voqeilikka bog'liq bo'lmagan tafakkurning o'ziga xos ko'rinishi”. L.Kanner: “Erta bolalik autizmi – muloqot (nutq, motorika)ning buzilishi bilan kechadigan alohida holat bo'lib, u “shizofrenik spektr” holatlar qatoriga kiradi”, - deb hisoblagan. Ushbu tushuncha yunon tilida αὐτός — “men”, demakdir ya'ni bemorning o'z qobig'iga o'ralishi va atrofdagilarga e'tibor bermasligini anglatadi.

Autizm sindromidagi o'ziga xos belgilar J.M.Itar, G.Asperger, K.S.Lebedinskiy, I.I.Mamaychuk, O.S.Nikolskaya, E.R.Bayenskaya, L.Ving va boshqalar tomonidan o'rganilgan va ularning ta'riflari bir-birini to'ldirib, ularda rivojlanishning uch sohasi: nutqiy muloqot, xulq-atvor va motorikasidagi buzilishlarga urg'u berilgan. O'rganilgan ma'lumotlar asosida tadqiqot doirasida mualliflik ta'rifi shakllantirildi: “Sensor va emotsional sezgining o'ta kuchayishi yoki pasayishi sababli haqiqiy hayotdan ajralish, o'z qobig'iga o'ralish, tashqi ta'sirlarga reaksiya yetishmasligi, passivlik va stereotipik xatti-harakatlarga ega bolalar autizm sindromli bolalardir”.

Mamlakatimiz korreksion ta'lim amaliyotida mazkur bolalar bilan olib boriladigan korreksion mashg'ulotlar uchun yaxlit dastur ishlab chiqilmagan. Shuningdek, pedagogik-psixologik, metodik ishlarning aksariyatida oilalarning korreksion faoliyatga qamrab olinmasligi kuzatildi. Tadqiqotimizda autizm sindromli bolalarni muloqotga o'rgatishda oila psixologik-pedagogik yordamning markaziy subyekti sifatida ko'rib chiqildi.

Muammoni asoslovchi tajriba-sinov ishlari natijasida autizm sindromli bolalar nutqida quyidagi kamchiliklar uchrashi aniqlandi: 1) lug‘at boyligining yetishmasligi; 2) suhbatni boshlamaslik yoki davom ettira olmaslik; 3) muloqotga kirishishdan cho‘chish yoki qochish. Bundan tashqari mazkur bolalarning 3-5 yoshida xulq-atvorning quyidagi og‘ishlari yaqqol kuzatiladi: 1) qo‘rquv; 2) tajovuzkorlik; 3) negativizm. Keltirilgan kamchiliklar sababli ular ijtimoiy muhitga muvaffaqiyatli moslasha olmaydilar va natijada maktab ta‘limiga tayyor bo‘lmaydilar. Chunki nutqiy va xulq-atvordagi og‘ishlar natijasida intellektual va ijtimoiy buzilishlar paydo bo‘ladi. Shuning uchun bunday bolalar bilan maxsus korreksion ishlar olib borish taqozo etiladi. Bolaning maktabgacha ta‘lim tashkilotiga jalb etilmasligi yuqoridagi muammolarning uzoq muddatga muqimlashishiga sabab bo‘ladi. Bola qanchalik erta mos ta‘limga jalb etilsa, nutqiy, intellektual, xulq-atvor va jismoniy muammolarning bartaraf etilishiga erishiladi. Natijada autizm sindromli bolalarning sog‘lom tengdoshlari orasida muvaffaqiyatli ijtimoiylashishi ta‘minlanadi. Bunda bolalar nutqi ustida ishlashning pedagogik-psixologik imkoniyatlarini tahlil qilish va tegishli pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqishda bolalarning murojaatga reaksiyasini shakllantirishga ustuvorlik berilishi lozimligi oydinlashdi. Natijada tadqiqotning ilmiy konsepsiyasining asosiy komponentlari belgilab olindi. Tadqiqotning ilmiy konsepsiyasini maktabgacha ta‘lim tashkilotida autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning subyektlar hamkorligiga asoslangan metodik tizimini takomillashtirish tashkil etdi. Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida sindromning klinik belgilari, kelib chiqish sabablari, turlari o‘rganildi. Xalqaro Kasalliklar Tasnifi 10-tahririga ko‘ra autizm sindromi “ruhiy kasalliklar” sinfining “psixik rivojlanishning buzilishi” blokiga joylashtirilgan va uning klinik kechishi, og‘irlik darajasi, salbiy oqibatlarining o‘ziga xos tomonlari bilan farqlanuvchi 8 turi ya‘ni sindromlari qayd etilgan. Shu bilan birgalikda Xalqaro Kasalliklar Tasnifi 11-tahririga ko‘ra autizmning turlari, nomi, shifri oldingi tasnifdan farq qilishi qiyosiy tahlil qilindi.

Autizm sindromli bolalarning shaxs sifatida shakllanishi sog‘lom bolalarga nisbatan farqli kechsa-da, rivojlanishning umumiy qonuniyatlariga bo‘ysunadi. Bolaning nutqi kattalar nutqi ta‘siri ostida shakllanadi va ko‘p jihatdan me‘yoriy nutq muhitiga va hayotining birinchi kunlaridan boshlanadigan ta‘lim va tarbiyaga bog‘liq. Tadqiqot doirasida autizm sindromli bolalar nutqining rivojlanganlik darajasini aniqlash metodikasi ishlab chiqildi. Mazkur metodika L.S.Vigotskiyning “Rivojlanishning dolzarb va yaqin zonasi”, A.N.Leontevning “Nutq rivojlanish bosqichlari” ta‘limotlariga asoslandi. O‘rganuvchi tadqiqot asosida autizm sindromli bolalar nutqining rivojlanishiga salbiy ta‘sir etuvchi fiziologik, psixologik, pedagogik, ijtimoiy to‘siqlar mavjudligi aniqlandi.

G.A.Mishina, V.Stern, J.Piaget, A.R.Luria, A.V.Zaporojets va S.L.Rubinshteynlarning tadqiqotlariga ko‘ra, bolaning rivojlanishidagi buzilishlar va orqada qolishlarning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri uning nutqidir. L.Kanner muloqotdagi qiyinchiliklar autizm sindromini tashxislashning asosiy mezon sifatida ko‘rib chiqadi. R.Jordan esa autizm rivojlanishning dastlabki bosqichlaridan boshlab muloqotning barcha shakllari buzilishini ko‘rsatib o‘tadi.


M.M.Kolsova bolalarning impressiv va ekspressiv nutqiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilib, nutqning motor jihatdan rivojlanishiga umumiy motor harakatchanlik, sensor tomoniga kattalar muloqotining ta'siri kattaligini aniqladi.

U.Frith, L.Williams S.Baron-Cohen autizm sindromli shaxslar suhbatdoshning hissiy holatini to'g'ri anglashda qiyinchiliklarga duch kelishini ta'kidlasalar, L.Koegel bolalardagi nutqiy motivatsiyaning sustligi bilan bog'liq nutq va muloqot jarayoni kechikishini aniqladi. V.Peter autizm spektri buzilgan bolalar ramziy tizimlarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishini ta'kidlaydi.

Nazariy ma'lumotlarni o'rganish va amaliyotdagi tajribalarni tahlil qilish natijasida autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishga ta'sir etuvchi korreksion-pedagogik omillar va tamoyillarni aniqladik: kompleks ta'sir, tizimlilik, ko'rgazmalilik, differensial yondashuv, nutqni boshqa bilish jarayonlari bilan bog'liqlikda rivojlantirish, individual yondashuv, kommunikativ yo'nalganlik, pedagogik optimizm, erta pedagogik aralashuv, korreksion-kompensatsion yondashuv uzluksizligi, moslashuvchanlik, oila bilan hamkorlik. Subyektlar faoliyati integratsiyasiga asoslangan omillar: oilada muloqot muhiti, hamkorlik muhiti, tibbiy nazorat va qo'llab-quvvatlash, sinergik metodik xizmat; mualliflik tamoyillari: tanish muhit va korreksion ta'sirda o'yinli faoliyat ustivorligi. Mazkur tamoyillar va omillar ustuvorligida autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning klaster modeli mazmuni ishlab chiqildi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning klaster mexanizmi”** deb nomlanib, unda autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning klaster modeli, bolalar nutqi ustida ishlashda rivojlantiruvchi muhit yaratishning pedagogik-psixologik mexanizmlari va bu jarayonda subyektlar faoliyati integratsiyasini ta'minlash yo'llari bayon etildi.

“Autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashga mo'ljallangan korreksion-pedagogik jarayon ta'lim klasteri sharoitida olib borilishi o'zining samarali natijasini beradi”, – degan xulosa ostida klaster sharoitiga quyidagicha ta'rif berdik: “Ta'lim klasteri sharoiti - subyektlar faoliyati integratsiyasida manfaatlar va xususiy maqsadlarning namoyon bo'lishi uchun amalga oshirilishi rejalashtirilgan pedagogik choralarda vazifalar impulsiga ta'sirning hamkorlikka asoslanishi”. Mazkur sharoit autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishda psixiatr, nevrolog, psixolog, defektolog, logoped, musiqa rahbari, ota-onalarning kompleks faoliyatini ta'minlash imkoniyatini berdi. Bunda ta'lim klasteri subyektlari sifatida tibbiyot muassasasi, ta'lim tashkiloti, oila, mahalla faoliyati integratsiyasi ta'minlandi. Ushbu integratsiyaning didaktik ta'minoti va texnologik modellashtirilishida korreksion-pedagogik yondashuvlarga tayanildi. Bunda bolalar nutqini rivojlantirishning 2 komponenti: 1) mikro va makro muhitning individual yo'nalganligi; 2) ta'lim resurslarining adaptivligiga ustuvorlik berildi. Bundan tashqari klaster modelda vizual kontakti nutqiy muloqotgacha rivojlantiruvchi ta'lim subyektlarining harakat xaritasini aniqlashga hamda “FloorTime”, “PECS kartochkalari” texnologiyalarining integrativ elementlarini “ijtimoiy dislokatsiya” metodika elementlariga bosqichma-bosqich singdirishga e'tibor qaratildi.



1-rasm. Ta'lim klasteri sharoitida autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning klaster modeli

Bolalar nutqini rivojlantirishda umumiy va mayda qo‘l motorikasi, nutqiy apparat holati, oiladagi pedagogik-psixologik muhit, maktabgacha ta‘lim tashkilotidagi korreksion-rivojlantiruvchi metodik tizim bilan bog‘liq komponentlarga asoslangan holda autizm sindromli bolalar nutqini rivojlantirishning klaster modeli joriy etildi. Model **maqsadli, mazmunli, tashkiliy-faoliyatli, baholash** va **natijaviy bloklarni o‘z ichiga oladi**.

Model bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion-pedagogik yondashuvlari hamda adaptiv metodikalarini o‘z ichiga oldi. Ushbu metodikalar autizm sindromli bolalarning passiv va faol nutqi ustida, eng avvalo o‘ziga qaratilgan murojaatga reaksiyani tarbiyalashning hamkorlikka yo‘naltirilgan ish turlaridan tashkil topdi. Bunda korreksion ish tizimida ota-onalarning pedagogik pozitsiyasi ustuvorligiga urg‘u berildi. Nutqiy materiallar “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturiga asoslangan “2-7 yoshli alohida ehtiyojli bolalar uchun moslashtirilgan” adaptiv o‘quv dasturiga tayanilgan holda modellashtirildi. Adaptiv dasturga ko‘ra 6-7 yoshli bolalar rivojlanishiga turli vaziyatlarda aloqa vositalaridan foydalanish qobiliyatini rivojlanganligi kabi kommunikativ kompetensiya belgilangan. Ushbu kompetensiyani bolalarda rivojlantirish maqsadida rasmi lug‘at, audio, video materiallar tayyorlandi. Autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion-didaktik mexanizmlarini takomillashtirishda axborot almashishga undovchi alternativ muloqot mashqlariga e‘tibor qaratdik. Masalan, amaliyotda “Harakatni top” mashqi samarali mashq sifatida qo‘llanildi. Bu bilan vizual sezgi orqali ko‘ruv idroki, mantiqiy taffakkuri shu bilan birga nutqiga ta‘sir etildi.

Modelni ishlab chiqishda Y.A.Borisovning maktabgacha ta‘lim muassasasida bolalarning nutqini rivojlantirishni tashkil etish modeliga tayanildi. Klaster modelining faoliyatli blokida autizm sindromli bolalarni nutqini rivojlantiruvchi kommunikativ impuls mexanizmlar ishlab chiqilgan bo‘lib, bunda bolalarni nutqqa o‘rgatishning 3 ta: refleksiv, ijtimoiy, kommunikativ reaksiya bosqichlarning tegishli mexanizmlari: stimulyativ ta‘sir, nutqiy impuls modellar, “Ijtimoiy dislokatsiya” metodikasi, stimullar, FloorTime, PECS texnologiyalari, alternativ muloqot vositalari yoritilgan. Kommunikativ impuls mexanizmlarining maqsadlarini quyidagicha belgilashimiz mumkin:

bolaning nutq faolligini oshirish va kommunikatsiyaga bo‘lgan qiziqishini rag‘batlantirish;

oddiy so‘zlardan tortib murakkab jummalargacha bo‘lgan nutq ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish;

ijtimoiy muloqotda ishtirok etish qobiliyatini shakllantirish;

bolaning o‘z fikrlarini ifoda etish imkoniyatini kengaytirish;


nutq rivojlanishida sensor va hissiy jihatlarini qo‘llab-quvvatlash.

Kommunikativ impuls o‘zida oiladagi nutqiy muhitni qulaylashtirish, bolaning ijtimoiy-maishiy faoliyatida muloqot modellaridan foydalanish kabi vazifalarni o‘z ichiga oldi. Bolani ijtimoiylashtirish va maktabga tayyorlashda korreksion ta‘sirni didaktik ta‘minlash masalasiga alohida e‘tibor qaratildi. Autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning korreksion-didaktik mexanizmlari axborot almashishga undovchi alternativ muloqot mashqlarini ishlab chiqish hamda pedagogik va

terapevtik ta'sir algoritmlar simulyasiyasini kuchaytiruvchi yondashuvlar orqali takomillashtirildi.

Autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlash samaradorligini oshirish maqsadida subyektlar o'rtasidagi faoliyat integratsiyasiga ustivorlik berildi va aynan ushbu faoliyat integratsiyasini qanday amalga oshirish lozimligi yuzasidan metodik tavsiyalar keltirildi. Buning uchun quyidagi integratsiya yo'nalishlarini taklif etdik: 1) Psixolog va defektolog hamkorligi; 2) Defektolog va ota-onal hamkorligi; 3) Tibbiyot, ota-ona va psixolog hamkorligi; 4) Oila va mahalla hamkorligi.

Ta'lim klasteri subyektlari faoliyatini integratsiyalashda metodik ta'minotga ehtiyoj tug'ildi. Ushbu metodik ta'minot autizm sindromli bolalarda ehtiyojlarni nutqiy ifodalashga qaratildi. Bolalardagi beqaror xatti-harakatlarni bartaraf etishga qaratilgan relaksatsion ta'sir amaliyotida konstruktivlikka ustivorlik berildi. Chunki, har bir subyektning personal iomkoniyatlari turlichadir. Shuning uchun ham taklif etilgan metodik tizim korreksion-rivojlantiruvchi muhit va faoliyat trayektoriyasiga hamohang maqbullashtirildi. Ushbu rivojlantiruvchi muhit quyida rasmda keltirildi:



2-rasm. Autizm sindromli bolalarni nutqini rivojlantiruvchi kommunikativ impuls mexanizmlar

Korreksion ta'sirning samaradorligiga oiladagi muloqot(oila), hamkorlik muhiti, tibbiy nazorat(tibbiyot) va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash(mahalla), adaptiv metodik xizmat(maktabgacha ta'lim tashkiloti) ijobiy ta'sir qildi. Ta'limiy tadqiqotda klaster muhitini davlat va nodavlat tashkilotlari, maktab, oila, mahalla subyektlari faoliyati tashkil etdi. Ushbu faoliyat oilalarga metodik, psixologik, tibbiy-ijtimoiy yordamni maqsadli amalga oshirishga yo'naltirildi. Shu bilan birga autizm sindromli bolalar nutq rivojiga va xulq-atvoriga ta'sir etish maqsadida qo'llanilgan relaksatsion ta'sir amaliyotida har bir metodikalar konstruktivlik

shartlarida tashkil etildi. Natijada har bir bolaning personal imkoniyatlari hisobga olingan holda ta'sir porsial shaklda berildi.

Oila klaster muhitida eng muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy institutdir. Oilaning bevosita ishtiroki inklyuziv va maxsus ta'lim samaradorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga bolalar nutqini rivojlantirish ishlarida rivojlantiruvchi muhit aynan oilada tashkil etilishi zarur. Rivojlantiruvchi muhit — bu shaxsning intellektual, ruhiy, jismoniy va ijtimoiy jihatdan kamol topishi uchun zarur sharoitlarni ta'minlovchi xususiyatlar majmui. Bunday muhitda insonlar o'z potentsialini to'liq yuzaga chiqarishi, yangi bilimlar va ko'nikmalarni egallashi, shuningdek, o'zgarishga tayyor bo'lib, muvaffaqiyatga erishishi uchun barcha imkoniyatlar yaratiladi. Bunga erishish maqsadida oilalar uchun “Integrativ korreksion ta'sir” nomli dastur asosida seminar tashkil etildi. Autizm sindromli bolalar nutqi ustida ishlashning klaster modelida vizual kontakti nutqiy muloqotgacha rivojlantiruvchi metodik tizimning elementlari boyitildi. Amalda samarali qo'llanilib kelingan “FloorTime”, “PECS kartochkalari” texnologiyalarining qo'llanilishida hamkorlik instrumentlariga e'tibor qaratdik. Bunda ta'lim subyektlarining harakat xaritasini aniqlashga qaratilgan “Integrativ korreksion ta'sir” nomli seminarda “FloorTime”, “PECS kartochkalari” texnologiyalaridan foydalanishning metodik tavsiyalari amaliyotga joriy etildi. Buning uchun tashkilotda va oilada o'tirib o'ynash, izohli vaziyatlardan foydalanish elementlarini integratsiyalashga asoslangan “Ijtimoiy dislokatsiya” metodikasi ishlab chiqildi. Metodika bolaning harakatlar trayektorikasi, uni kutishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni tanishtirish orqali boladagi noma'lum vaziyatda yuzaga keluvchi tashvishni kamaytirish, ijtimoiy moslashuvini oshirish va mustaqillikni rivojlantirish uchun qo'llanildi. U og'zaki nutq va vaqtda mo'ljal olishdagi qiyinchiliklarda rejalashtirilgan jadvalga rioya qilish orqali harakatlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Ta'lim klasteri subyektlari faoliyatini integratsiyalashning metodik ta'minotini takomillashtirishda ehtiyojni nutqiy ifodalash mezonlari bo'yicha bolalarning beqaror xatti-harakatlarini bartaraf etish metodlariga ehtiyoj tug'ildi. Bunda bolalarning faol nutqini rivojlantirishga qaratilgan relaksatsion ta'sirni konstruktivlik imkoniyatlariga ko'ra korreksion-rivojlantiruvchi faoliyat trayektoriyasida optimallashtirishga erishildi. Eng muhimi bolaning oilasi uning rivojlanish dinamikasiga, reabilitatsiya, tuzatish tadbirlarining samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Nutqni rivojlantirishda rivojlantiruvchi muhit bolaning ehtiyoji va qobiliyatlaridan kelib chiqqan holda oilada hamda ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida-mikromuhit; mahalla, tibbiyot birlashmalari va boshqa jamoat joylarida-makromuhit shaklida tashkil etildi. Bunda muhitning kommunikativ impuls mexanizmlari alohida o'rin tutdi. Mazkur mexanizmning samaradorligi subyektlar faoliyati integratsiyasiga asoslangan pedagogik-psixologik shart-sharoitlar asosida ta'minlandi. Natijada bolalarning kommunikativ ko'nikmalari shakllandi va xulq-atvorida ijtimoiy-faollik sifatleri barqarorlashdi. Natijalarni maxsus ishlab chiqilgan metodika orqali o'rganish bo'yicha tajriba-sinov ishlari olib borildi.

